

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA AZIZA FARMOVNOVNA**

**HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA XIZMAT  
KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI  
(Buxoro viloyati misolida)  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Ergasheva Aziza Farmonovna**

Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish yo'llari  
(Buxoro viloyati misolida) ..... 3

**Эргашева Азиза Фармоновна**

Пути развития сферы обслуживания на рынке ремесленных изделий (на примере  
Бухарской области) ..... 27

**Ergasheva Aziza Farmonovna**

Ways to develop service provision in the handicraft products market (on example of  
Bukhara region) ..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 56

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA AZIZA FARMOVNOVNA**

**HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA XIZMAT  
KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**  
**(Buxoro viloyati misolida)**  
**08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2745 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Oripov Maxmud Ashurovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirov Azizjon Anvarovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Amonboyev Muhammadsiddiq**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «22» august kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99865) 221-26-92, (99 865) 221-27-07; elektron manzil: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (           raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99865) 221-25-87, elektron manzil: [buxdu\\_arm@umail.uz](mailto:buxdu_arm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «23» 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil «22» 08 dagi №25 raqamli reyestr bayonnomasi).

**O.X. Xamidov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**D.Sh.Yavmutov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
Kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**B.N. Navruz-Zoda**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon hunarmandchilik mahsulotlari bozorining 2023-yildagi hajmi qariyb 830,4 milliard AQSh dollarini tashkil etgani hamda 2024–2032-yillarda yillik o‘rtacha 9,2 foizlik o‘sish prognoz qilinayotgani ushbu soha xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi<sup>1</sup>. Ushbu jadal o‘sish nafaqat hunarmandchilik mahsulotlari sotuvini, balki ularga xizmat ko‘rsatish—logistika, marketing, turistik yo‘nalishlar bilan integratsiya, onlayn savdo platformalari, brendlash va kadrlar tayyorlash kabi yo‘nalishlarda ham ulkan imkoniyatlar ochib beradi. Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni balki milliy an'analar, badiiy meros va aholi bandligini mustahkamlashda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqt. Bundan ko‘rinadiki, xizmatlar ko‘rsatish sohasiga bo‘lgan ehtiyojni sifatli qondirish va aholi bandligini ta’minlashda hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasidan ma’lumki, hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiyot samaradorligini oshirish, aholi daromadlari va bandligi darajasini yuksaltirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, hunarmandchilik sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishda mintaqaviy xususiyatlarni aniqlash, sohaning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini kengaytirish, hududiy davlat dasturlarini takomillashtirish va hunarmandchilikka oid investitsion loyihalar samaradorligini baholash bo‘yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, hunarmandchilik faoliyati orqali aholi daromadlarini oshirish hamda ish bilan bandligini kengaytirish bo‘yicha muqobil ssenariylarni ishlab chiqish, uzoq muddatli istiqbollarni belgilashda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari ham bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sirasiga kiradi. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar hunarmandchilik sektori orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka erishishda yangicha uslub va mexanizmlarni izlash, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishda xizmatlar ko‘rsatish sohasi drayverlardan biri sifatida qabul qilingan bo‘lib, uning istiqbolli yo‘nalisharida mavjud salohiyatdan maqbul darajada foydalangan holda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, “Viloyat markazlarida savg‘oti mahsulotlari do‘konlari, kafeteriyalar, restoranlar, choyxonalar, magazinlar, hunarmandchilik do‘konlari tashkil qilish va jozibador ko‘ngilochar xizmatlarni yo‘lga qo‘yish”<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish aholini hunarmandchilikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va hunarmandchilikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, tashqi va ichki bozorlarda hunarmandchilik mahsulotlari savdosini rivojlantirish, soha uchun

<sup>1</sup> Handicrafts Market: Global Opportunity Analysis and Industry Forecast, 2022–2032 [Elektron resurs] / Allied Market Research. – Release date: 2023. <https://www.alliedmarketresearch.com/handicrafts-market> (murojaat qilingan sana: 17.09.2023)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

zarur bo‘lgan xom-ashyo bazasini mustahkamlash va “ustoz-shogird” munosabatlarini rag‘batlantirishning yaxlit tizimini yaratishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 3-oktyabrdagi PF-5841-son “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 27-noyabrdagi 960-son “Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3393-son “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3451-son “Xorijiy davlatlarda ko‘rgazma tadbirlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib chiqish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyulda 216-son “Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning nazariy va metodolik masalalari hamda hunarmandchilik mahsulotlarini realizatsiya qilishda yangi xizmat turlarini yaratishning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini baholash borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, R.Sunrayuth, J.Jaitly, F.Codignola, U.Yadav, R.Tripathi, M.Tripathi, G.Yadav, A.Anand, M.Gayatri, N.Narain, S.Mishra, S.Sood., C.Council<sup>3</sup> kabi xorijiy olimlar hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari ko‘rsatib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari I.A.Sediks, J.A.Jumadilova, I.N.Vodyanova, V.V.Volkov, T.V.Belova, D.Ye.Gavrilov<sup>4</sup>

<sup>3</sup> Sunrayuth R. Collaborations and design development of local craft products: Service design for creative craft community //International Journal of Creative and Arts Studies. – 2016. – Т. 3. – №. 2. – С. 1-12.; Jaitly J. Crafts as industry //SEMINAR-NEW DELHI-. – MALYIKA SINGH, 2005. – Т. 553. – С. 14.; Codignola F. The art market, global economy and information transparency //Symphonia-Emerging Issues in Management. – 2003. – №. 2. – С. 73-93.; Yadav U. S. et al. First Global Handicraft Index 2022: World’s first GHI for growth and promotion of our craft, Tradition, and Skill of Artisan at the Global level.; Anand A. et al. Impact of COVID-19 pandemic on micro, small, and medium enterprises (MSMEs): India report. – 2020.; Council C. Consuming craft: The contemporary craft market in a changing economy. – 2009.

<sup>4</sup> Седых И. А. Рынок народно-художественных промыслов. – 2021. – Т. 80. – С.; Жумадилова Ж. А. Ремесленные рынки в странах центральной азии. проблемы и перспективы развития //Известия Кыргызского государственного

tomonidan hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari hamda uni rivojlantirishda xorijiy bozorlarga kirish imkoniyatlaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda hunarmandchilik sohasi, jumladan, hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari mamlakatimizda M.M.Qodirova, A.A.Maroziqov, M.G.Xushnazarova, R.G.Abdullayeva, M.O.Pardayeva, F.A.Norqobilova kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>5</sup>.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar hunarmandchilik sohasining rivojlanish tendensiyalari, milliy iqtisodiyotda hunarmandchilik sohasining tutgan o'rni va uni rivojlantirish istiqbollari o'rganilgan. Biroq aynan hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, bu jarayonni takomillashtirish asosida bozor faoliyati samaradorligini oshirish masalalari o'rganilmagan. Shunga binoan, hunarmandchilik sektorining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini inobatga olgan holda, ilmiy-uslubiy tavsiya va takliflar ishlab chiqish masalalari dolzarb hisoblanadi. Bozorning samarali rivojlanishi uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash kabi muhim yo'nalishlarni chuqurroq tadqiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish yo'llari bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlari, mohiyati va rivojlanishini ilmiy-nazariy tadqiq etish;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko'rsatishning baholash ko'rsatkichlarini tadqiq etish;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish;

---

технического университета им. И. Рazzакова. – 2013. – №. 29. – С. 280-282.; Водянова И. Н. Новая ремесленная экономика как вид малого предпринимательства //Проблемы современной экономики. – 2010. – №. 2. – С. 206-209.; Волков В. В., Белова Т. В. Общества взаимопомощи ремесленных рабочих в Европейской России второй половины XIX в. как феномен инфраструктуры рынка труда переходного типа //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2017. – С. 29.; Гаврилов Д. Е. Экономическая природа и особенности развития ремесленной деятельности: дис. – докторская... кандата экономических наук/ДЕ Гаврилов. Екатеринбург, 2012.

<sup>5</sup> Mominovna Q. M. Hunarmand uyushmasi-milliy hunarmandchilik siyoshi //Conferencea. – 2022. – С. 34-36.; Abdurashidovich M. A. Milliy hunarmandchilik-kichik biznesning tarkibiy qismi sifatida //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 23-26.; Gulamjanovna X. M. Turizm tarmog'ida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari //Journal Of Economy, Tourism And Service. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 107-112.; Абдуллаева Р.Г. Хунармандчилик фаолиятини тадбиркорликни кенгайтириш орқали ривожлантиришнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Икт. фан. фал. док. дисс. автореф. Тошкент – 2019. 54 б.; Пардаева М.О. Хизмат кўрсатиш соҳасида оиласвий тадбиркорликни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш ўйлари. Икт. фан. фал. докт. (PhD) дисс. автореф. Самарқанд, 2020 й. – 32 б.; Норқобилова Ф.А. Миллий иқтисодиётда хунармандчиликни рақамлаштиришнинг ташкилий иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Икт. фан. фал. док. дисс. автореф. Урганч – 2022. 60 б.

Buxoro viloyat hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalarini baholash;

xizmat ko'rsatish sohasining hunarmandchilik mahsulotlari bozoriga ta'sir qiluvchi omillarini tahlil qilish;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlanish holatini baholash:

hunarmandchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning asosiy omil va zahiralaridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlanishni prognoz parametrlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan hunarmandchilik subyektlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tanlab olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, SWOT tahlili, kompleks yondashuv, statistik kuzatish, ekonometrik modellashtirish va prognozlash, anketa-so'rvonoma usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

hunarmandchilikni rivojlantirishda hududiy rivojlanish drayverlari (mahalliy hunarmadlik an'analari, yuqori sifatlari xom-ashyo mahsuloti, ustoz-shogird an'analari, tarixiy imidj), mahsulotlarini ishlab chiqarish va joriy qilishda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning joriy qilinganligi, milliy kontent ulushi omillariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholash uslubiyoti tarkibiy qism ulushi ( $S_i$ ), o'rtacha daromad hajmi ( $X$ ), kutilayotgan bozor yo'nalishi ( $E$ ), mehnat unumдорлиги ( $MP$ ) va ivestitsion samaradorlik ( $ROI$ ) ko'rsatkichlarining integral omillariga asoslanuvchi yondoshuv asosida takomillashtirilgan;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni samarali tashkil etishda ishlab chiqaruvchilar va ularga xizmat ko'rsatuvchilar o'rtaсидаги hamkorlik va aloqa zanjirida sifat va o'zaro ishonch tamoyillariga asoslanuvchi "maqsad – vazifalar – vositalar – natija" algoritmidan iborat tizim taklif etilgan;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish orqali Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmini oshirishning 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining aloqa va axborotlashtirish xizmat ko'rsatuvchi, moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi, transport xizmatlarini ko'rsatuvchi, yashash va ovqatlanish, savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarini ko'rsatuvchi turlari bo'yicha tasnifi ishlab chiqilgan;

hunarmandchilik mahsulotlarini samarali bozor segmentlarga ajratishda funksional buyumlar, an'anaviy san'at mahsulotlari, dizaynerlik mahsulotlari va

savg‘oti mahsulotlarining sifat darajasi, ishlab chiqarilish usuli hamda bozordagi talabga ko‘ra farqlanishini aniqlangan;

hunarmandchilik buyumlarining yuqori (300-1800 AQSH dollari), o‘rta (100-300 AQSH dollari) va past (100 AQSH dollardan arzon) chakana narxlarda sotishda xorijiy sayyohlar va delegasiyalarga, mahalliy turistlarga, kollektorlarga (mahalliy va xorijiy) hamda mahalliy iste’molchilarga ajratish segmentatsiyasi maqbul darajasida ta’sir etishi asoslangan;

Buxoro viloyatining hunarmandchilik bozorida xizmat ko‘rsatishning ta’sirini baholashda nisbiy vazn koeffitsiyentlarining 2020–2024 yillarda miqdoriy o‘zgarishlari asosida 2020-yildan 2024-yilgacha xizmat ko‘rsatish indeksining umumiyligi o‘sishi qariyb uch baravar bo‘lganlini aniqlangan;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning “maqsad – vazifalar – vositalar – natija” algoritmini tizimli amalga oshiruvchi konseptual modeli ishlab chiqilgan;

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlanish orqali hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmini 2030-yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va usullarning tadqiqot maqsadi bilan mosligi hamda ilmiy asoslanganligi, tahlil uchun olingan ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tgani, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish hamda ularni baholash yo‘llarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** esa Yangi O‘zbekistonni barpo etishda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish jarayonida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarni belgilashda hamda iqtisodiy ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Mintaqa iqtisodiyoti”, “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”, “Hududni barqaror rivojlantirish”, “Milliy iqtisodiyot” kabi fanlarni o‘qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

hunarmandchilikni rivojlantirishda hududiy rivojlanish drayverlari (mahalliy hunarmadlik an’analari, yuqori sifatli xom-ashyo mahsuloti, ustoz-shogird an’analari, tarixiy imidj), mahsulotlarini ishlab chiqarish va joriy qilishda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning joriy qilinganligi, milliy kontent ulushi omillariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligi asoslangan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand» uyushmasining 2025-yil 11-martdagи 01-17/308 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Buxoro viloyatining hunarmandchilik bozorida xizmat ko‘rsatish sohasiga ta’sir etuvchi omillar

dastaklarining rag‘batlantiruvchi funksiyasi asosida zamonaviy sharoitda hududning o‘z resurslaridan oqilona foydalanish va ichki salohiyatni oshirishga imkon yaratgan;

hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini baholash uslubiyoti tarkibiy qism ulushi ( $S_i$ ), o‘rtacha daromad hajmi ( $X$ ), kutilayotgan bozor yo‘nalishi ( $E$ ), mehnat unumdarligi ( $MP$ ) va ivesitsion samaradorlik ( $ROI$ ) ko‘rsatkichlarining integral omillariga asoslanuvchi yondoshuv asosida takomillashtirilgan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 11-martdagи 01-17/308 sonli ma’lumotnomasi). Ushbu ilmiy yangilikni amaliyatga joriy etilish mehnat unumdarligini 5-7 foizga oshirish evaziga hunarmandchilik sohasida kiritilgan sarmoyaning qaytish darjasini yuqori bo‘lish imkoniyatini yaratgan.

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni samarali tashkil etishda ishlab chiqaruvchilar va ularga xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va aloqa zanjirida sifat va o‘zaro ishonch tamoyillariga asoslanuvchi “maqsad – vazifalar – vositalar – natija” algoritmidan iborat tizim taklif etilgan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 11-martdagи 01-17/308 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, xizmat ko‘rsatish sohasini barqaror rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirishning qo‘sishcha imkoniyatlarni yaratilgan.

hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish orqali Buxoro viloyatida hunarmandchilik mahsulotlari eksport hajmini oshirishning 2030 yilgacha prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 11-martdagи 01-17/308 sonli ma’lumotnomasi). Ushbu prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish 2030-yilga borib, hunarmandchilik mahsulotlari eksportini 60 foizga oshirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 146 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikamizda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalarini bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyatga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida xizmatlar ko‘rsatish sohasi rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar ko‘rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlari, mohiyati va rivojlanishi, hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko‘rsatishning baholash ko‘rsatkichlari hamda hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko‘rsatishni rivojlanishning ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalari yoritib berilgan.

O‘tgan vaqtlar davomida xizmat ko‘rsatish sohasi misli ko‘rilmagan darajada o‘sishga erishdi va ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning ustun sohasiga aylandi. Bu aql bovar qilmas o‘sish, bir tomondan, iqtisodiy bilimlar, texnologik yutuqlar va tezkor aloqa vositalarining rivojlanishi kabi omillar bilan bog‘liq bo’lsa, ikkinchi tomondan, global iste’molchilar talabining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Darhaqiqat, xizmatlar endi faqatgina bir-birini to‘ldiruvchi emas, balki iqtisodiy faoliyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, moddiy va nomoddiy xizmatlar ko‘rsatish jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, uning sifatiga ayni shu vaqt oralig‘ida baho berish mumkin bo‘ladi. Bu shunchaki tovarni sotib olish emas, balki bir qator jarayonlarning majmuasidir. Xizmat ko‘rsatish jarayon bilan bog‘liqligini inobatga olgan holda uning o‘ziga xosligi quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi deb hisoblash mumkin.

Birinchidan, xizmatlar jismoniy shaklga ega emas, ularni ishlab chiqarish joyidan boshqa joyga ko‘chirib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, biz mashina yoki televizorni sotib olgandek, xizmatni olib qo‘yib, keyinroq foydalana olmaymiz.

Ikkinchidan, bir vaqtning o‘zida yaratilish va iste’mol qilinish xususiyatiga ega bo‘lib, xizmat ko‘rsatish jarayonida, masalan, sartarosh soch oladigan vaqtida siz ham xizmatdan foydalanasiz. Ushbu jarayon bir vaqtning o‘zida yuz beradi.

Uchinchidan, saqlash imkoniyatining yo‘qligi esa xizmatni keyinroq foydalanish uchun yig‘ib qo‘yish mumkin emaslikni bildiradi. Misol uchun, bo‘sh turgan mehmonxona xonasi yoki o‘tkazilmay qolgan konsert chiptasini keyinroq sotib bo‘lmaydi.

To‘rtinchidan, har bir xizmat o‘ziga xos bo‘lib, masalan, sartaroshning xizmati boshqasidan farq qilishi, yoki bir shifokorning davolash usuli boshqacharoq bo‘lishi mumkin. Bu xizmat ko‘rsatuvchi shaxsnинг mahorati va tajribasiga bog‘liq.

Beshinchidan, xizmat ko‘rsatish jarayonida nafaqat xizmat ko‘rsatuvchi, balki xizmatdan foydalanuvchi ham faol ishtirok etadi. Mijozning talablari, istaklari va fikrlari xizmatning sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Keltirilgan ushbu ta’riflarning boshqa ta’riflardan asosiy farqi xizmatning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlar kengroq ko‘lamda qamrab olinganligi hamda bugungi

tendensiyalardan kelib chiqqan holda xizmatni taqdim etish imkoniyatlarini ham nazarda tutishi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy faoliyatda xizmatlarning ahamiyati ayon bo‘lgach va xizmat faoliyatini samarali tashkil etish zarurati paydo bo‘lganda, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining turlarini o‘rganish zarurati vujudga keladi (1-rasm).

### Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining turlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar

Aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektronpochta, suniy yo‘ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma’lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.

Moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar

Banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachiligi va boshqa moliyaviy xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar (muassasalar).

Transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar

Transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar

Mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta’minalash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.

Savdo xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar

Ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar.

### 1-rasm. Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar turlari<sup>6</sup>

Muallif fikricha, hunarmandchilik bozorida xizmat turlari keng ko‘lamni qamrab olib, mazkur sohaning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oluvchi asosiy omil hisoblanadi. O‘rganishlar natijasida, ushbu bozor doirasida mavjud xizmat turlari tasniflanadi (1-jadval).

<sup>6</sup> Xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi.

## 1-jadval

### Hunarmandchilik bozorida ko‘rsatiladigan xizmat turlari<sup>7</sup>

<b>T/r</b>	<b>Xizmat turi</b>	<b>Mazmuni</b>
1.	Mahsulotlarni tayyorlashda qo‘sishimcha qiymat yaratish xizmatlari	Hunarmandlar tomonidan milliy uslubdagi amaliy san’at buyumlari, zargarlik, kulolchilik, to‘qimachilik, yog‘och o‘ymakorligi kabi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni mahalliy hamda xalqaro bozorlarga tayyorlash xizmatlari. Ushbu xizmatlar mahsulotlarning estetik qiymatini oshirish bilan birga, ularning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta’minlaydi.
2.	Hunarmandchilik mahsulotlarini sotishda marketing xizmatlari	Mahsulotlarni sotish, reklama qilish va bozor talablariga moslashtirish xizmatlari hunarmandchilik bozorining barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bu xizmatlar ko‘pincha onlayn savdo platformalari orqali amalga oshiriladi, bu esa hunarmandchilik mahsulotlarining global miqyosdagi ommabopligini oshiradi.
3.	Hunarmandchilik ko‘rgazmalarini tashkil etish xizmatlari	Mahsulotlarni targ‘ib qilish va ommalashtirish maqsadida milliy hamda xalqaro ko‘rgazma, festivallar, madaniy tadbirlar tashkil etish. Ushbu xizmatlar nafaqat iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, milliy madaniyatni keng miqyosda targ‘ib qiladi.
4.	Hunarmandchilik ustaxonalarida o‘quv jarayonlarini tashkil etish xizmatlari	Yangi hunarmandlarni tayyorlash, tajribali ustalarining bilimlarini yosh avlodga yetkazish, mahorat darslari va hunarmandchilik bo‘yicha kurslar tashkil etish xizmatlari. Bu xizmatlar sohaning davomiy rivojlanishini ta’minlaydi.
5.	Moliyaviy va konsalting xizmatlari	Hunarmandlarga kredit mablag‘larini taqdim etish, biznes reja tuzish, mahsulot eksportini tashkil qilish bo‘yicha maslahat berish xizmatlari. Ushbu xizmatlar sohaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.
6.	Texnologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash xizmatlari	Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va takomillashtirishga ko‘maklashish xizmatlari. Bunga dizayn dasturlari, 3D bosib chiqarish texnologiyalari va boshqa innovatsiyalar kiradi.

Mazkur xizmat turlari hunarmandchilik bozorining rivojlanishi va barqarorligini ta’minlash bilan birga, milliy iqtisodiyotning muhim tarmog‘ini shakllantiradi va aholi ish bilan bandligini taminlash orqali turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, yuqori sifatli mahsulotlar, qimmatbaho materiallardan foydalanish, an’anaviy yoki innovatsion dizayn, qo‘l mehnatining yuqori ulushi hisobiga hunarmandchilik buyumlarining yuqori (300-1800 AQSh dollari), sifatli materiallardan foydalanilgan mahsulotlar, qimmatbaho materiallarning qisman qo‘silishi va mahsulotlarning turistik yodgorliklar uchun moslashtirilganligi hisobidan o‘rtta (100-300 AQSh dollari), oddiy va past sifatli materiallar, soddalashtirilgan, an’anaviy dizayn, keng iste’molchilar uchun mo‘ljallangan, iqtisodiy jihatdan arzon past (100 AQSh dollardan arzon) chakana narxlarda sotishda xorijiy sayyoohlar va delegatsiyalarga, mahalliy turistlarga, kollektorlarga (mahalliy va xorijiy) hamda mahalliy iste’molchilarga ajratish segmentatsiyasi maqbul darajada bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish doirasida dunyodagi muvaffaqiyatli davlatlar sifatida 2023-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra AQSh (hunarmandlar daromadi 40% ga oshgan), Yaponiya (eksport hajmi 25% ga oshgan), Hindiston (mahalliy daromadlar 30% ga oshgan, 100 mingga yaqin yangi ish o'rinnari yaratilgan), Xitoy (xalqaro bozor ulushi 30% ga oshgan), Germaniya (hunarmandchilik an'analari yoshlar orasida ommalashgan), Fransiya (hunarmandlar savdosi 50% ga oshgan, turistlar oqimi kuchaygan), Turkiya (eksport hajmi 20% ga oshgan, yangi brendlari yaratilgan), Braziliya (mahalliy mahsulotlarga talab oshgan, eksport geografiyasi kengaygan) davlatlari tajribasi o'rganildi. Xulosa qilib aytish mumkinki, turli davlatlarda hunarmandchilik mahsulotlari bozorida ko'rsatilagan xizmatlarni rivojlantirish strategik maqsad sifatida belgilamoqda.

Dissertasiyaning "**Buxoro viloyati hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko'rsatish ko'rsatkichlari tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyat hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari, xizmat ko'rsatish sohasining hunarmandchilik mahsulotlari bozoriga ta'sir qiluvchi omillari tahlili asosida hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlanishni baholash usullari yoritib berilgan.

Buxoro viloyatida 2020–2024-yillar davomida hunarmandchilik bozorida sezilarli o'sish kuzatilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 207020 donadan 269349 donagacha oshib, bu ko'rsatkichda 30% dan ortiq o'sishni ta'minlagan. Shu bilan birga, hunarmandlar soni 2246 nafardan 2412 nafargacha o'sgan bo'lsa-da, bu o'sish sur'ati mahsulot ishlab chiqarishdagi o'zgarishlardan sekinroq kechgan. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligi oshganidan dalolat beradi.

Shuningdek, hunarmandchilik sohasida band bo'lganlar soni 5851 nafardan 12282 nafargacha oshib, bu tarmoqning iqtisodiyotga salmoqli hissa qo'shayotganini ko'rsatmoqda. 2020–2024 yillarda hunarmandlarga ajratilgan kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lsada, 2023-yilda maksimal darajaga (58,694 mln so'm) yetgach, 2024-yilda pasaygan. Bu kreditlashdagi noaniqliklar sohaning molivayiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligidan ogohlantiradi. Eksport hajmi esa 2020-yildagi 1 57139 mln so'mdan 2024-yilda 418414 mln so'mgacha oshgan. Bu o'sish hunarmandchilik mahsulotlarining xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlayotganini ko'rsatadi va eksportga yo'naltirilgan strategiyalarning samarasini tasdiqlaydi.

Olingan ma'lumotlar sohaning barqaror o'sish sur'atlariga ega ekanligini ko'rsatmoqda, ammo ayrim sohalarda e'tiborli bo'lish zarur. Kreditlash hajmidagi pasayishni qayta ko'rib chiqish va yangi molivayiy mexanizmlarni joriy etish sohaning barqarorligini oshirish uchun muhimdir. Hunarmandlar soni va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi nomutanosiblik esa ilg'or texnologiyalarni joriy etish yoki hunarmandlarning malakasini oshirish orqali muvozanatlashtirilishi lozim. Eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni kashf etish orqali sohani yanada rivojlantirish mumkin (2-jadval).

**2-jadval**

**2020-2024-yillarda Buxoro viloyatining hunarmandchilik va xohasida xizmat ko'rsatishning dinamikasi**

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
<b>Hunarmandlar soni (nafarda)</b>	4,207.00	152,579	216,236	243,554	269,540
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mln. so'mda)	2,845.6	3,512.8	4,987.4	6,234.7	7,856.3
<b>Hunarmandlar soni (nafarda)</b>	2,246	1,934	2,091	2,187	2,412
<b>Hunarmandlarga berilgan kreditlar hajmi(mln. so'mda)</b>	1,019	5,849	7,197	58,694	46,266
Hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mln. so'mda)	5,851	4,999	8,981	11,085	12,282
<b>Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mln. so'mda):</b>					
<b>Kommunal xizmatlar</b>	145.7	178.3	245.8	312.6	385.4
Sotuvxarajatlari	85.3	82.7	156.5	195.3	234.7
Bank va moliya xarajatlari	12.4	68.2	89.6	752.1	593.8
Bojxona xizmatlari	31.8	35.4	62.3	76.9	84.9
Marketing va reklama xarajatlari	18.7	21.3	38.4	47.2	56.6
Logistika va yuklarni tashish xizmatlari	24.5	28.9	45.7	61.3	73.8
Sug'urta xizmatlari	8.9	11.2	18.5	24.7	31.4
Huquqiy xizmatlari	6.3	8.7	14.2	19.8	26.5
<b>Jami xizmatlar hajmi</b>	333.6	444.7	671.4	1,493.1	1,489.1
<b>Hunarmandchilik mahsulotlari eksporti hajmi (mln. so'mda)</b>	1,571.30	1,749.73	3,073.34	3,789.99	4,184.14

**Xizmat ko'rsatish indeksini hisoblash formulası:**

$$XK_{uk} = \alpha \times X_{kh} + \beta \times H_s + \gamma \times K_m + \delta \times E_h + \theta \times Sh_s$$

Bunda:

- $XK_{uk}$  - xizmat ko'rsatish umumiyo ko'rsatkichi;
- $X_{kh}$  - xizmat ko'rsatish hajmi;
- $H_s$  - hunarmandlar soni;
- $K_m$  - o'zlashtirilgan kreditlar miqdori;
- $E_h$  - eksport hajmi;
- $Sh_s$  - shogirdlar soni;
- $\alpha, \beta, \gamma, \delta, \theta$  - vazn koeffitsiyentlari.

### 3-jadval.

#### Buxoro viloyatining hunarmandchilik sohasida xizmat ko‘rsatish indeksini hisoblash uchun nisbiy vazn koeffitsiyentlari

Yillar	Vazn koeffitsiyentlari				
	$\alpha$	$\beta$	$\gamma$	$\delta$	$\theta$
2020	0.35	0.20	0.15	0.20	0.10
2021	0.36	0.19	0.16	0.19	0.10
2022	0.37	0.18	0.17	0.18	0.10
2023	0.38	0.17	0.18	0.17	0.10
2024	0.39	0.16	0.19	0.16	0.10

#### Xizmat ko‘rsatish indeksini hisoblash:

$$XK_{uk(2020)} = 0.35 \times 2845.6 + 0.20 \times 4207 + 0.15 \times 1019 + 0.20 \times 1571.3 + 0.10 \times 2246 = 2521.8$$

$$XK_{uk(2021)} = 0.36 \times 3512.8 + 0.19 \times 4579 + 0.16 \times 5849 + 0.19 \times 1749.7 + 0.10 \times 1934 = 3598.5$$

$$XK_{uk(2022)} = 0.37 \times 4987.4 + 0.18 \times 5236 + 0.17 \times 7197 + 0.18 \times 3073.3 + 0.10 \times 2091 = 4773.8$$

$$XK_{uk(2023)} = 0.38 \times 6234.7 + 0.17 \times 5554 + 0.18 \times 58694 + 0.17 \times 3790.0 + 0.10 \times 2187 = 14740.2$$

$$XK_{uk(2024)} = 0.39 \times 7856.3 + 0.16 \times 5940 + 0.19 \times 46266 + 0.16 \times 4184.1 + 0.10 \times 2412 = 13589.7$$

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan hisob-kitoblar va ekonometrik tahlillar shuni ko‘rsatadi, Buxoro viloyatida hunarmandchilik sohasida xizmat ko‘rsatish indeksi 2020-2024 yillarda sezilarli o‘sish dinamikasini namoyish etgan. Xususan, 2020-yilda 2,521.8 birlikni tashkil etgan indeks ko‘rsatkichi 2024-yilga kelib 13,589.7 birlikka yetib, 5.4 barobar o‘sishni qayd etgan. Bu o‘sish sur’ati O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, sohaning yuqori potentsialidan dalolat beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2023-yilda kuzatilgan indeksning rekord darajaga (14,740.2) ko‘tarilishi asosan kreditlash hajmining keskin o‘sishi (58,694 mln so‘m) bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu o‘z navbatida davlat tomonidan hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, imtiyozli kreditlar berish mexanizmlarining faollashuvi va xususiy investorlarning sohaga qiziqishining ortishi natijasida yuz bergen. 2024-yilda kreditlash hajmi 46,266 mln so‘mga qadar kamayganiga qaramay, indeks 13,589.7 darajasida saqlanib qolgan, bu esa sohaning kreditlarga bog‘liqligidan barqaror rivojlanish modeliga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi.

Muhim jihat shundaki, xizmat ko‘rsatish hajmining 2,845.6 mln so‘mdan 7,856.3 mln so‘mga qadar o‘sishi (2.76 baravar) va eksport hajmining 1,571.3 mln so‘mdan 4,184.14 mln so‘mga qadar ko‘tarilishi (2.66 baravar) sohaning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga muvaffaq bo‘lganligini tasdiqlaydi. Bu ko‘rsatkichlar hunarmandchilik mahsulotlari va xizmatlarining sifat darajasi yaxshilangani, marketing strategiyalarining samaradorligi oshgani hamda xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasi yuqorilashganidan dalolat beradi.

Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish borasida yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanish va bozor talabini o‘rganish

maqsadida onlayn so‘rovlar internet tarmog‘i orqali o‘tkazildi<sup>8</sup>. So‘rovnoma jami 103 nafar respondent ishtirok etib, berilgan savollarga javob bergan respondentlarning barchasi viloyatda faoliyat yuritayotgan hunarmandlar bo‘lib, 2023-yil sentyabr-oktyabr oylarida ishtirok etishdi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan foydalangan holda iqtisodiy samaradorlikning tarkibiy qism ulushi, o‘rtacha daromad hajmi, kutilayotgan bozor yo‘nalishi, mehnat samaradorligi, investitsion samaradorligini hisoblash orqali samaradorlikni oshirishning ishlab chiqarish hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘sish taklifi asoslandi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### **Xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini hisoblash algoritmi<sup>9</sup>**

Nº	Ko‘rsatkichlar	Hisoblash algoritmi	Shartli belgilari
1.	Tarkibiy qism ulushi	$S_i = \frac{N_i}{N} * 100$	$S_i$ — hunarmandlarning umumiy respondentlar sonidagi ulushi $N_i$ — hunarmand respondentlar soni $N$ — jami respondentlar soni
2.	O‘rtacha daromad hajmi	$\bar{X} = \frac{\sum_{i=1}^n X_i * P_i}{100}$	$\bar{X}$ — o‘rtacha biznes hajmi $X_i$ — o‘rtacha biznes qiymati $P_i$ — o‘rtacha biznes foizi
3.	Kutilayotgan bozor yo‘nalishi	$E = \frac{B_x}{B_m}$	$E$ — eksportga qiziqish $B_x$ — xorijiy bozorni tanlaganlar soni $B_m$ — mahalliy bozorni tanlaganlar soni
4.	Mehnat samaradorligi	$MP = \frac{Y}{L}$	$MP$ — ishchi kuchi samaradorligi $Y$ — umumiy daromad $L$ — ishchilar soni
5.	Investitsion samaradorlik	$ROI = \frac{F_s}{Q_i}$	$ROI$ — investitsiyaning rentabelligi $F_s$ — umumiy daromad va xarajat farqi $Q_i$ — qo‘yilgan kapital

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan hisoblash algoritmi yordamida har bir ko‘rsatkich uchun Buxoro viloyatining xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning imkoniyatlarini aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshirilgan:

$$S_i = \frac{(26 + 22)}{103} * 100 = 46,6 \%$$

<sup>8</sup> [https://docs.google.com/forms/d/1E7DdUybF7NldSsnHaeh9Y4\\_Jm1SZl9lnvI1TB\\_8bdPI/edit](https://docs.google.com/forms/d/1E7DdUybF7NldSsnHaeh9Y4_Jm1SZl9lnvI1TB_8bdPI/edit)

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

$$\bar{X} = \frac{(2800000000 + 300000000 + 8250000000 + 10500000000)}{100} = 293500000 so'm$$

$$E = \frac{56}{40} = 1,4 \text{ baravar yuqori}$$

$$MP = \frac{293500000}{643,5} = 455,922 so'm$$

$$ROI = \frac{117400000}{176100000} * 100 = 66,67 \%$$

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'tkazilgan so'rovnoma natijalari Buxoro viloyatidagi hunarmandchilik sohasining barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Masalan, tikuvchilik 25,2 foiz va boshqa an'anaviy hunar turlari 21,4 foiz asosiy yo'naliishlar bo'lib, bu sohalar iqtisodiyotning muhim qismini tashkil etadi. So'rov natijalariga ko'ra, hunarmandlarning yoshi ko'proq 42 yoshdan 50 yoshgacha 23 foizni va 26 yoshdan 33 yoshgacha 22 foizni tashkil etdi. Tajribali mutaxassislar tomonidan to'ldirilgan bo'lib, bu sohaning barqarorligi va davomiyligini ta'minlaydi.

Ayniqsa, hunarmandlarning o'rtacha biznes hajmi 293,5 million so'mni tashkil etadi, bu esa kichik va o'rta biznesning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni muhimligini ko'rsatadi. Eksportga yo'naltirilgan hunarmandlarning ulushi 56%ni tashkil etib, mahalliy bozorga 40 foiz nisbatan 1,4 baravar yuqori bo'lishi hududda eksport imkoniyatlarining kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Ishchi kuchi samaradorligi hisob-kitoblarga ko'ra 455 922 so'mni tashkil etadi, bu esa hunarmandchilik sohasida mehnat unumdarligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Investitsiya rentabelligi 66,67 foiz bo'lib, hunarmandchilik sohasiga kiritilgan sarmoyaning qaytish darajasi yuqoriligini bildiradi.

Dissertasiyaning uchinchi bobiga "Hunarmandchilik mahsulotlari bozorida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish istiqbollari" deb nomlanib, unda hunarmandchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning asosiy omil va zahiralaridan samarali foydalanish usullaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlarini aniqlash asosida keyingi besh yillikning prognoz natijalari asosida maqsadli ko'rsatkichlarini shakllantirish yoritib berilgan.

Bugungi kunda ham ustoz-shogirdlik an'analari hunarmandchilik faoliyatida keng qo'llanib kelinadi. Biroq, hozirgi vaqtda kadrlar siyosatida olib borilayotgan islohotlar ustozlikni rasmiy va professional tartibda amalga oshirishni talab qiladi. Ushbu ustoz-shogird an'anasi kasb-hunar egalari, ayniqsa Buxoro viloyati hunarmandlar faoliyatida alohida o'ringa ega. Bugungi kunda Buxoro viloyatida jami 10 ta hunarmandchilik markazlari faoliyat olib bormoqda (5-jadvalga qarang).

Buxoro shahridagi "Bukhara silk carpets handmade" markazida 80 nafar shogird, "Buxoro zargarlik markazi"da 20 nafar shogird, "Bukhara Nice carpet" gilamchilik markazida 60 nafar shogird, "Malika Sulton" zardo'zlik markazida 150 nafar shogird, "Ustoz-shogird" Amaliy san'at markazida 20 nafar shogird, Modarixon madrasasi hunarmandchilik markazida barcha yo'naliishlar bo'yicha 30 nafar shogird, "Usta davron miniatyura" markazida 40 nafar shogird, Buxoro tumanida joylashgan B.Naqshband hunarmandchilik markazida somon san'ati, miniatyura, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik yo'naliishlarida 40 nafar shogird va G'ijduvon tumanidagi Kulol ustozoda markazida 20 nafar shogird ustoz hunarmandlardan hunar sirlarini o'rganib kelmoqda.

Shu jumladan, Buxoro shahridagi zargarlik, zardo‘zlik, gilamchilik va miniatyura markazlari ommaviy tarqalgan bo‘lib, ularning o‘rtacha shogirdlar soni 50 nafardan 100 nafargacha bo‘ladi. Buxoro tumanidagi hunarmandchilik markazi va G‘ijduvon tumani Kulol ustozoda markazi esa kichikroq bo‘lib, 20 nafardan 40 nafargacha shogirdlar bilan faoliyat ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, viloyatda jami 6285 nafar a’zo shogirdlar mavjud. Ularning 1980 nafari erkaklar (31.50%), 4305 nafari ayollar (68.50%) va 4080 nafarii yoshlarni (64.92%) tashkil etadi. Eng ko‘p a’zo shogirdlarga ega bo‘lgan hudud Buxoro shahri bo‘lib, 847 nafar a’zo shogird mavjud. Buxoro shahrida faoliyat yuritayotgan hunarmandlarning 272 nafari erkak (32.11%), 575 nafari ayol (67.89%) va 522 nafar yosh (61.63%) shogirdlari hisoblanadi.

### 5-jadval.

#### **Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan hunarmandchilik markazlari to‘g‘risida ma’lumot<sup>10</sup>**

<b>№</b>	<b>Hududi nomi</b>	<b>Hunarmandchilik markazi nomi</b>	<b>Yo‘nalish turi</b>	<b>Yaratilgan ish o‘rni</b>	<b>Faoliyatni boshlagan yili</b>
1	Buxoro shahar	“Bukhara silk carpets handmade”	Qo‘lga gilam to‘qish	80	1997-yil
2	Buxoro shahar	“Buxoro zargarlik markazi” zargarlik markazi	Qimmatbaho metaldan yasalgan buyumlar	20	2022-yil
3	Buxoro shahar	“Bukhara Nice carpet” gilamchilik markazi	Qo‘lga gilam to‘qish	60	2020-yil
4	Buxoro shahar	“Malika Sulton” zardo‘zlik markazi	Zardo‘zlik	150	2022-yil
5	Buxoro shahar	“Ustoz-shogird” amaliy san‘at markazi”	Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va bo‘yoqli naqshlar.	20	2019-yil
6	Buxoro shahar	Modarixon madrasasi hunarmandchilik markazi	Barcha yo‘nalishlar	30	2022-yil
7	Buxoro shahar	“Usta davron miniatyura” markazi	Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va bo‘yoqli naqshlar.	40	2019-yil
8	Buxoro tuman	B.Naqshband hunarmandchilik markazi	Somon san‘ati, Miniatyura, yog‘och o‘ymakorligi, kashtado‘zlik yo‘nalishlari	40	2021-yil
9	G‘ijduvon tumani	Kulol ustozoda markazi	Kulolchilik.	20	2017yil
10	Vobkent tumani	Zardo‘zlik markazi	Zardo‘zlik	30	2022-yil

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Hunarmand” uyushmasi Buxoro viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

## MAQSAD

